

UY SHAROITIDA TA'LIM OLAYOTGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ADAPTIV TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Malika Ergasheva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

E-mail: dr.malikaprof@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada uy sharoitida ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda adaptiv texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda imkoniyati cheklangan bolalarning individual ehtiyojlari, o'quv faoliyati va rivojlanish sur'atini inobatga olgan holda moslashtirilgan o'quv texnologiyalari turlari va ularning amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, maqolada adaptiv ta'limni tashkil etish jarayonida o'qituvchining metodik yondashuvi, o'quv materiallarini tanlash mezonlari va natijalarni baholash usullari yoritilgan. Ushbu tadqiqot maxsus pedagogik ehtiyojli o'quvchilar uchun zamonaviy chet tili ta'limini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asoslarni kengaytiradi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan o'quvchilar, uy ta'limi, ingliz tili, adaptiv ta'lim texnologiyalari, maxsus pedagogika, individual yondashuv, raqamli o'quv muhit, moslashtirilgan o'qitish.

XXI asrda ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham sifatli va qulay o'quv muhitini shakllantirish imkonini bermoqda. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun inklyuziv hamda moslashtirilgan ta'limni tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib, ayniqsa uy sharoitida ta'lim olayotgan o'quvchilarga nisbatan bu ehtiyoj yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus pedagogik ehtiyojli o'quvchilarga chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatishda oddiy uslub va vositalar yetarli bo'lmaydi. Bu kabi sharoitda adaptiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni o'quvchining individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish dinamikasiga moslashtirilgan o'qitish usullarini joriy etish zarurati tug'iladi.

Ingliz tili bugungi global axborot makonida asosiy kommunikatsion vositalardan biri sifatida alohida o'rinni egallaydi. Shu bois, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashda, ularning chet tilini egallashi muhim hisoblanadi. Biroq, bunday o'quvchilarning uy sharoitida ta'lim olishi o'ziga xos yondashuv va pedagogik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shu jihatdan, maqolada aynan uy ta'limi formatida ingliz tilini o'qitishda adaptiv texnologiyalarning qanday

pedagogik asoslarga tayanishi, ularni to'g'ri tanlash, moslashtirish va amaliyotga tadbiq etish masalalari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy pedagogika amaliyotida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni sifatli ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning individual ehtiyoj va imkoniyatlariga mos o'quv muhitini shakllantirish masalasi muhim ilmiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sog'ligida nuqson bo'lgan va doimiy ta'lim muassasasiga qatnay olmaydigan bolalar uchun uy sharoitida tashkil etiladigan ta'lim modeli, mazmunan chuqur va texnologik jihatdan moslashtirilgan yondashuvni talab etadi [1].

Uy ta'limining o'ziga xosligi shundaki, bu shakldagi o'qitish jarayonida o'quvchining psixofiziologik, emotsional va kognitiv rivojlanish darajasi, uning bilim olishga nisbatan tayyorgarligi, shuningdek, o'quv faoliyatining tezligi va uslubi har tomonlama hisobga olinishi lozim bo'ladi. Aynan shu jarayonda adaptiv texnologiyalar pedagogik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Mazkur texnologiyalar nafaqat o'qitish samaradorligini oshirish, balki o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashda ham muhim rol o'ynaydi [2].

Adaptiv ta'lim texnologiyalari, asosan, sun'iy intellekt, algoritmik moslashtirish, differensial taqdimot va analitik baholash tizimlariga asoslangan bo'lib, har bir o'quvchining qobiliyat darajasiga mos ta'lim kontenti yaratishga imkon beradi. Ular orqali taqdim etilayotgan bilimlar, topshiriqlar, interaktiv mashqlar va baholash mexanizmlari o'quvchining real ehtiyojlariga mos tarzda taklif etiladi. Bu jarayon, ayniqsa, cheklangan harakat faoliyatiga, eshitish yoki nutq muammolariga ega bo'lgan bolalarning ingliz tilini egallash jarayonida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [3].

Uyda ta'lim olayotgan bolalarga ingliz tilini o'rgatishda qo'llanilayotgan platformalar orasida Khan Academy Kids, Lingokids, Duolingo, Quizlet, Raz-Kids, Special Words, Speechnotes kabi vositalar o'zining yuqori moslashuvchanligi va foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi. Mazkur resurslar multimodal formatda ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchining eshitish, ko'rish, kinestetik idrok mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali til ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [4]. Ushbu platformalar, ayniqsa, fonetik va leksik birliklarni o'rgatishda vizual va eshitish kombinatsiyalariga asoslanib ishlaydi.

Adaptiv ta'lim vositalaridan foydalanishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi ham alohida e'tibor talab qiladi. Chunki texnologik vositalarning o'zi o'quv jarayonini to'liq ta'minlamaydi, balki ular faqat metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar bilan uyg'unlashgandagina natija beradi. Shu bois, o'qituvchi o'quv materiallarini tanlashda o'quvchining individual diagnostikasini hisobga olishi, topshiriqlarni murakkablik darajasi bo'yicha tabaqalashtirishi, o'rgatish jarayoniga gamifikatsiya elementlarini kiritishi zarur [5].

Mazkur pedagogik yondashuv quyidagi prinsiplar asosida shakllanishi lozim:

- moslashuvchanlik (o'quvchining imkoniyatlariga qarab kontent va mashqlarni o'zgartira olish);
- o'z-o'zini baholash va refleksiya tizimining mavjudligi;
- doimiy teskari aloqa asosida ta'lim jarayonini boshqarish;
- ta'limiy materiallarning modullashtirilgan, ya'ni bosqichma-bosqich murakkablashuvi.

Bundan tashqari, adaptiv texnologiyalar yordamida til o'rganishda psixologik motivatsiyani shakllantirish, ijtimoiy-emosional qo'llab-quvvatlash ham ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillar sirasiga kiradi. Uy ta'limi kontekstida bu omillar yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki ijtimoiy cheklovlar mavjud bo'lgan o'quvchilar uchun til o'rganish faqat bilim emas, balki kommunikatsion imkoniyatlarni kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi [6].

Shuningdek, uy sharoitida ingliz tilini o'rgatishda baholash tizimi ham moslashtirilgan bo'lishi lozim. O'quvchining harakat faolligi, eshitish yoki ko'rish cheklovlari mavjud bo'lgan hollarda, an'anaviy yozma yoki test shaklidagi baholash emas, balki og'zaki javoblar, rasmi tanlovlar, tovushga asoslangan testlar kabi moslashuvchan metodlar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir [7].

Natijada, uy sharoitida ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda adaptiv ta'lim texnologiyalarining tadbiqi nafaqat o'quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirishda, balki ularning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday pedagogik yondashuv o'quvchini mustaqil fikrlashga, muloqotga ochiqlik va ijtimoiy moslashuvga tayyorlaydi, bu esa uni jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [8].

Tadqiqot natijalari uy sharoitida ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda adaptiv ta'lim texnologiyalari pedagogik jihatdan samarali yechim bo'la olishini tasdiqladi. Ushbu texnologiyalar nafaqat til kompetensiyalarini shakllantirish, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish motivatsiyasini kuchaytirish, o'quv materialini individual qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt elementlariga asoslangan va multimodal kontentni o'z ichiga olgan platformalar o'quvchilar ehtiyojlariga moslashishda yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ayniqsa, eshitish, ko'rish yoki nutq faoliyatida nuqsoni bor o'quvchilar uchun moslashuvchan, vizual, audio va interaktiv vositalar bilan boyitilgan resurslar o'quv jarayonini sezilarli darajada qulaylashtiradi.

Bundan tashqari, adaptiv texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish, emotsional muvozanatni saqlash va o'zini ifoda etish qobiliyatini rag'batlantirishda ham ijobiy

ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat maxsus pedagogika doirasida ushbu texnologiyalarning amaliyotga kengroq tatbiq etilishini nazarda tutadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun uy sharoitida ingliz tilini o'qitishda adaptiv texnologiyalarni joriy etish ularning ta'limga bo'lgan kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qitish jarayonini individuallashtiradi va ta'lim sifati hamda natijadorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv zamonaviy maxsus ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хуторской А.В. Современные образовательные технологии. — М.: Академия, 2019. — 384 с.
2. Шевченко Т.Ф. Специальная педагогика: Учебник. — М.: Владос, 2020. — 256 с.
3. Kırkgöz, Y., & Dikilitaş, K. (2018). English Language Teaching Research in the Middle East and North Africa. Springer.
4. Витюкова Е.Н. Электронные образовательные ресурсы и технологии в обучении детей с ограниченными возможностями здоровья // Современные проблемы науки и образования. — 2021. — № 4.
5. Gentry, M., et al. (2020). Adaptive learning for students with disabilities: A review of current literature. *Journal of Special Education Technology*, 35(3), 167–181.
6. Сафина, Г.Р. Организация индивидуального обучения детей-инвалидов в домашних условиях. // Вестник психолого-педагогических исследований. — 2022. — № 2.
7. Карачарова Л. А. Использование интерактивных технологий в обучении английскому языку детей с ОВЗ. // Иностранные языки в школе. — 2023. — № 1.
8. Rienties, B., & Toetenel, L. (2016). The impact of learning design on student behaviour, satisfaction and performance. *Computers in Human Behavior*, 60, 317–329.